

MUSIQA O'QUV DASTURLARIDAN O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK TAFAKKURIGACHA: FINLYANDIYA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI

Malika Xudaybergenova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti doktoranti

maaliikhudaibergenova@gmail.com

Annotatsiya: *Fin ta'lim tizimi o'zgacha metod va qarashlari bilan rivojlangan davlatlar ta'lim tizimlaridan ajralib turadi. Buning asosiy sababi ta'lim tizimidagi shaffoflik, erkinlik va inson qadr-qimmati yuqoriligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan ancha yillardan buyon xalqaro PISA dasturida yetakchi davlatlar qatorida ekanligi Fin ta'lim tizimi kuchining isboti deb bilamiz. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimiga o'zgarishlar, yangi tendensiyalar kirib kelishini qo'llab quvvatlash asnosida, xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishga talab ham kuchaymoqda. Shu bois musiqa ta'limi sohasida yangiliklar, o'zgacha tajribalarni qo'llash uchun shart-sharoitlar bisyor. Ushbu maqolada Finlyandiya ta'lim tizimidagi an'anaviy va zamonaviy ta'lim metodlari va innovatsiyalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Fin musiqa ta'limi tizimlari, ustoz-shogird an'analari, umumiy va qarama-qarshi fikrlar, musiqiy faoliyatlar.*

ОТ МУЗЫКАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ПРОГРАММ К ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ УЧИТЕЛЕЙ: МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ ФИНЛЯНДИИ

Аннотация: Финская система образования отличается от систем образования развитых стран своими уникальными методами и подходами. Не будет преувеличением сказать, что основными причинами этого являются прозрачность, свобода и высокое уважение к человеческому достоинству в системе образования. В частности, мы считаем доказательством эффективности финской системы образования то, что она уже много лет входит в число ведущих стран в международной программе PISA. Сегодня, поддерживая изменения и новые тенденции в системе образования Узбекистана, растет потребность в использовании опыта зарубежных стран. Поэтому существует множество возможностей для применения инноваций и уникального опыта в области музыкального образования. В данной статье представлена информация о традиционных и современных методах обучения и инновациях в системе образования Финляндии.

Ключевые слова: системы финского музыкального образования, традиции наставничества, общие и противоречивые мнения, музыкальная деятельность.

MUSIC EDUCATION SYSTEMS, MASTER-APPRENTICE TRADITIONS, GENERAL AND CONTRASTING VIEWS, AND MUSICAL ACTIVITIES

Abstract: *The Finnish education system stands out from the education systems of developed countries due to its unique methods and approaches. It is no exaggeration to say that the main reasons for this are the transparency, freedom, and high regard for human dignity within the education system. In particular, we consider Finland's consistent ranking among the leading countries in the international PISA program for many years as evidence of the strength of the Finnish education system. Today, as Uzbekistan supports changes and the introduction of new trends in its education system, there is an increasing demand for utilizing the experiences of foreign countries. Consequently, there are numerous opportunities to apply innovations and unique experiences in the field of music education. This article provides information on traditional and modern teaching methods and innovations in the Finnish education system.*

Keywords: *Music education systems, master-apprentice traditions, general and contrasting views, and musical activities.*

KIRISH

Musiqiy ta'lim – bolaning fiziologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim vosita bo'lib, ilmiy tadqiqotlarda musiqa ta'sirini va kuchini yetarlicha yoritishmoqda. Xususan, musiqa miyaning bir necha faoliyatini bir vaqtda faollashtirishi, shuningdek, musiqa – inson miyasida ko'plab funksiyalarni bir vaqtda ishga tushuradigan kam sonli faoliyat turlaridan biri ekanligini ham e'tirof etilmoqda. Oliver Sacks va Daniel Levitin buni «bir vaqtning o'zida butun miyani yoqib yuboradigan jarayon» deb ataydi.[1] Musiqa bilan shug'ullangan insondan yomonlik kutilmaydi yoki kimgadur yomonlik qila olmaydi degan fikrlar ham bor, albatta bu san'atning estetik ta'siri jihatidan kelib chiqqan bo'lsa, hozirgi kunda tabiiy fanlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning musiqa bilan shug'ullangani ushbu fanlarni o'zlashtirishda katta foyda berishi ham isbotlangan. Ta'lim tizimida san'at fanlarining o'rnini oshirish, dars soatlarini ko'paytirish bilan bog'liq masala hali hamon o'z yechimini topmagan. Sababi texnologiya va sun'iy intellekt shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda san'at unchalik ham dolzarb emasdek, go'yo. Ammo ilmiy tadqiqotlar buning aksini ko'rsatmoqda. O'qituvchilar tayyorlash tizimining shakllanishi bosqichlari

Finlandiyada o'qituvchilar tayyorlash tizimiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan. Yanne Sentti va Yari Salminen o'z tahlillarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga e'tibor qaratishadi chunki bu kasbiylashuv va intizomlilik g'oyalarini asoslaydi deb hisoblashadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'lim,

ta'lim siyosati talablarini ham inobatga olishga majbur bo'lishi va odatda turli manfaatlarga ega bo'lgan bu bosim ortidagi kuchlar qanday o'zgarganini va ayniqsa, ular o'qituvchilar tayyorlash tizimining vazifasi, tuzilmasi va maqsadlarini qay tarzda o'zgartirishini isbotlashga harakat qilishgan. Xulosa o'rnida ta'lim siyosatiga xos bo'lgan uch davr mobaynida ilmiy tadqiqotlar va ideal o'qituvchi obrazining o'rnini aks ettiruvchi jadvalni tuzib chiqishadi. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ushbu tahlilda fin ijtimoiy olimi Pertti Alasuutari tomonidan kiritilgan urushdan keyingi madaniy jihatdan farqlanuvchi uchta davrga murojaat qilinadi. U bu davrlarni «iqtisodiyotlar» deb atagan. Mazkur iqtisodiyotlar Finlyandiya matbuotida tashqi va bandlik siyosati bo'yicha olib borilgan jamoatchilik muhokamalari asosida shakllantirilgan. Uchta iqtisodiyot xronologik tartibda quyidagicha: axloqiy iqtisodiyot, rejali iqtisodiyot va raqobatbardosh iqtisodiyot.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Finlyandiya juda qoloq mamlakat edi va iqtisodining tuzilishi g'arbiy qo'shnisi Shvetsiya yoki boshqa G'arb mamlakatlariga qaraganda ko'proq Sharqiy Yevropa mamlakatlariga o'xshar edi. Ko'pchilik oilalar hayoti qishloq va o'rmon xo'jaligiga asoslangan edi, shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash ham shu turmush tarziga xizmat qilishga yo'naltirilgandi.

Ushbu umumiy uch qismli bo'linish fin boshlang'ich o'qituvchilar ta'limi sezilarli darajada o'zgargan davrni tushunishda tahliliy yordam beradi. Bizning ma'lumotlarimiz o'quv dasturlari, o'qituvchilar ta'limi bo'limlari va fakultet kengashi bayonnomalari, shuningdek, talabalar uchun turli yo'riqnomalarni o'z ichiga olgan o'qituvchilar ta'limi matnlaridan iborat.

Finlyandiya ta'lim siyosati Ikkinchi jahon urushidan keyin yangi bosqichga ko'tarilgan. Siyosiy so'l qanot Finlyandiya maktab tizimini demokratlashtirish va yangilashni talab qilgan va 1945-yil bahorida bo'lib o'tgan parlament saylovlarida g'alaba qozonib, o'z talablarini tezroq amalga oshirish uchun qulay vaziyatga ega bo'ladi. Ikkinchi jahon urushining yakuni Germaniyaning ta'sirini Finlyandiyada sezilarli darajada kamaytirgan. Ilmiy va madaniy doiralarda asta-sekin Qo'shma Shtatlar yangi yo'l ko'rsatuvchi belgiga aylangan va ingliz tili nemis tilining o'rnini egallay boshlagan.[3]

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Finlyandiya juda qoloq mamlakat bo'lgan va iqtisodiyoti tuzilishi g'arbiy qo'shnisi Shvetsiya yoki boshqa G'arb mamlakatlariga qaraganda ko'proq Sharqiy Yevropa mamlakatlariga yaqin edi. Ko'pchilik oilalar hayoti qishloq va o'rmon xo'jaligiga asoslangan edi, shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash ham shu turmush tarziga xizmat qilishga yo'naltirilgandi. Shuni ham ta'kidlash joizki, 1921-yildagi majburiy ta'lim to'g'risidagi qonun Finlyandiyaning sharqiy va shimoliy hududlarida hali to'liq amalga oshirilmagan edi. [3],[4],[5]

Urushdan keyingi davrda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, amaliy va axloqiy yo'nalishlar aniq-ravshan ko'zga tashlanadi. Shubhasiz, bu davr Alasuutari tomonidan tasniflanishning birinchi bosqichi hisoblangan axloqiy iqtisodiyot davrini aks ettiradi. Bu davrning o'ziga xos mehnat yo'nalishi kasb yoki da'vat deb qaralgan. O'qituvchidan o'z ishiga fidoyi bo'lish va o'quvchilar uchun ibrat namunasi bo'lish talab etilgan. Shu bois, o'qituvchilar alohida mavqega ega edilar. Ular jamiyat tomonidan e'zozlanadigan madaniy qadriyatlarning asrovchilari va targ'ibotchilari sifatida qaralgan. Bu mavqe yuksak axloqiy talablarni o'z ichiga olardi. [5],[6]

TAHLIL VA MUHOKAMA.

Finlyandiya ta'lim borasidagi o'zgarishlar va munozalar, shu bilan birga ushbu tamoyillarni boshlang'ich ta'limga tatbiq etish 1863-yilda Finlyandiyaning birinchi pedagogika bilim yurti – Jyväskylä boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlaydigan muassasasi tashkil etilgandan so'ng boshlandi. Ushbu bilim yurtining asoschisi va rivojlantiruvchi yetakchi sifatida Uno Cygnaeus (1810-1888) tayinlandi. Cygnaeus o'zining ta'lim g'oyalarini asosan Markaziy Yevropa, Germaniya va ayniqsa Shveytsariya'dagi Vettingen o'qituvchilar tayyorlash kollejidan olgan edi [7],[8]

Cygnaeus xristian-axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratgan va vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otishga intilgan. U, xususan, ko'rgazmali o'qitish usulini ma'qullagan, o'quvchining mustaqil faoliyatiga asoslangan ta'limni rivojlantirish va amaliy fanlar bilan nazariy fanlarni uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Cygnaeus ortiqcha yodlash yoki mexanik o'rganish jarayonini yoqlamagan.

Uning fikricha, maktab ta'lim berish bilan birga tarbiyaviy vazifani ham bajarishi lozim edi. Bundan tashqari, o'qitish jarayoni faqat ma'lumot uzatishga qaratilmasligi kerak deb hisoblagan.[9] Cygnaeus o'zining g'oyalarini amalga oshira olmadi, sababi uning Jyväskylä o'qituvchilar tayyorlash bilim yurti direktori lavozimidagi faoliyati (1863-1868) qisqa muddatli bo'ldi.[10]

To'rnudd va Siukonenning musiqa pedagogikasining uslubiy asoslari mavjud. Aksel To'rnudd (1874-1923)[11] 1898-1919 yillarda Rauma o'qituvchilar tayyorlash bilim yurtida musiqa o'qituvchisi, keyinchalik 1919-1923 yillarda boshlang'ich maktab inspektori lavozimlarida faoliyat yuritgan. Uning yangicha o'qitish usuli shundan iborat ediki, major minor tonalligidagi har bir tovushga alohida kichik kuy bastalashga harakat qilgan. Xususan, do-majorda: Do naqshi: do, re, do, re, do; Re naqshi: re, mi, fa, re, do; Mi naqshi: mi, fa, mi, fa, re, do; Fa naqshi: fa, sol, lya, sol, mi, re, do va hokazo.[12] To'rnudd qo'shiq kuylashni o'qitish bolalarga kuylashni o'rgatish bo'yicha keng qamrovli metodik darslik tuzgan. Bu darslik 1913-yilda «Kansakoulun lauluoppi» ("Boshlang'ich maktab uchun qo'shiq o'qitish darsligi (musiqa savodi)) nomi bilan nashr etilgan va unga qo'shiqlar to'plami ham kiritilgan. Albatta ushbu kitob o'qituvchilar uchun zarur metodik qo'llanma hisoblangan. Unda qo'shiqlar to'plamidagi asarlarni o'rgatish bo'yicha ko'rsatmalar, qo'shiq kuylashni qanday o'qitish kerakligi, o'qituvchilar o'z darslarida qanday muhim jihatlar va maqsadlarga e'tibor qaratishlari lozimligi haqida misollar keltirilgan.

Sortavala o'qituvchilar tayyorlash kollejining qo'shiq o'qituvchisi Vilxo Siukonen (1885-1941)[13] 1917-1929 yillarda o'z usulini "tahliliy-sintetik" deb atagan va uni "Laulun opetusoppi" [14] kitobida taqdim etgan. Shuningdek, u o'sha yili "Laulukirja" [15] nomli qo'shiqlar to'plamini ham nashr etgan. Ushbu kitoblarda qo'shiqni turli usullarda ajratish metodi qo'llanilgan. Ya'ni ushbu metodda kuylash davomida asarning turli elementlari o'rganiladi. Shuningdek bu usul orqali o'qitilgan o'quvchilar asta-sekin va bosqichma-bosqich o'quvchilar nota bo'yicha kuylash va chalish uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarni egallaydilar.

Siukonenning ta'kidlashicha, qo'shiqni eshitib o'rganishda tahlil mashqlari, masalan, quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin [14],[15]

1. O'qituvchi matnni doskadan o'qiydi. Notanish so'zlar tushuntiriladi. O'quvchilardan biri matnni o'qiydi va shundan so'ng butun sinf uni birgalikda o'qiydi;
2. O'qituvchi qo'shiqni takt notalarini urib ko'rsatib kuylaydi;
3. Birgalikda kuylash va takt notalarini urish;
4. Qo'shiqni kuylash;
5. O'qituvchining kuylashi asosida oson she'r ritmini matn ustidagi notalar bilan belgilash;
6. Qo'shiqning asosiy ohangini aniqlash. O'qituvchi uzoq asosiy notani chalayotganda qo'shiq sekin kuylanadi;
7. Qo'shiqni kuylash. Asosiy ohangni kuylash va qo'shiqning umumiy taassurotiga asoslanib, qo'shiqning uchtovushligi kuylanadi. Major uchtovushligi quvnoq, minor uchtovushligi g'amgin bo'lib, turli qo'shiqlardan namunalar keltirilgan.

Siukonenning usulida tahlildan so'ng sintez, ya'ni tahlil amalga oshiriladi. Ya'ni, Siukonen usuli tahlildan boshlanadi, bunda kuy dastlab qismlarga va alohida notalarga bo'linadi. Shundan so'ng sintez boshlanadi, bunda notalar ohanglarni hosil qiladi.[14] Amalda, Siukonen usulida musiqiy hodisa avval tushuniladi, ya'ni eshitiladi va shundan keyingina hodisa notalashtirilgan shaklga o'tkaziladi.

XULOSA.

Yuqoridagi ma'lumotlardan Fin ta'lim tizimidagi nafaqat musiqa ta'limidagi, balki butun bir pedagogik qarashlardagi o'zgarishlarning debochasini ko'rishimiz mumkin. Hozirda ham ushbu jarayon o'zgarishda davom etmoda. Zero ta'lim tizimi zamon va muhitga, insonlarning, jamiyatning intellekti o'sishi va o'zgarishiga qarab yanada yaxshilanishi yoki teskari yomonlashishi ham mumkin.

Bugungi kunda Finlyandiyada musiqa ta'limi xuddi O'zbekiston musiqiy ta'lim tizimi kabi rasman ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: biri 7 yoshdan boshlab 9 yil davomida majburiy bo'lgan umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi darslari hisoblansa, ikkinchisi esa turli yoshdagi o'quvchilarga ixtiyoriy, qo'shimcha musiqa mashg'ulotlari taklif etiladigan musiqa maktablaridir. (albatta O'zbekistonda bu 2 bosqich rasman umumta'lim o'rta maktablarida 7-sinfgacha va maktabdan tashqari tashkil etilgan musiqa va san'at maktablarida davom etadi).

Bu ikki yo'nalishli tizim Finlyandiya musiqa ta'limining kuchli tomonlaridan biri hisoblanib, o'qituvchilar tayyorlashning tarixiy rivojlanishi va tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatgan. Musiqa maktablarida beriladigan ta'lim *"San'at o'quv dasturi doirasidagi asosiy ta'lim to'g'risidagi qonun"* (2002, 2005) bilan tartibga solinadi. Umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi esa *"Asosiy ta'lim to'g'risidagi qonun"* hamda *"Asosiy ta'lim uchun Finlyandiya milliy asosiy o'quv dasturi"* (2004) va *"O'rta maktablar uchun milliy o'quv dasturi"* (2003) asosida olib boriladi.[16]

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Daniel J. Levitin, Oliver Sacks "This Is Your Brain on Music: The Science of a Human Obsession" Aug. 28 2007
2. Janne Sääntti, Jari Salminen Development of teacher education in Finland 1945-2015. Hungarian Educational Research Journal 2015, Vol. 5(3) 1–14 © The Author(s) 2015. DOI: 10.14413/herj.2015.03.01.
3. Autio, V.M. (1990). Opetusministeriön historia 5. Jälleenrakentamisen ja kasvun kulttuuripolitiikka 1945 1946. Helsinki. Opetusministeriö.
4. Ahonen, S. (2003). Yhteinen koulu. Tasa-arvoa vai tasapäisyyttä. Tampere: Vastapaino.
5. Rinne, R. (1986). Kansanopettaja mallikansalaisena: opettajuuden laajeneminen ja opettajuuden rekrytointimekanismit Suomessa 1851-1986 virallisen kuvausaineiston ilmaisemana. Turun yliopiston kasvatustieteiden tiedekunta. A. Tutkimuksia; 108.
6. Alasuutari, P. (1996). Toinen tasavalta: Suomi 1946-1994. Tampere: Vastapaino.
7. Nurmi, V. (1964). Birth and development of teacher training colleges in Finland in the last century II: Didactic Part (Maamme seminaarien varsinaisen opettajakoulutuksen synty ja kehittyminen viime vuosisadalla II: Didaktinen osa). Jyväskylä Studies in Education, Psychology, and Social Research, 7.
8. Pajamo, R. (1976). Teaching of singing in Finnish schools 1843-1881 (Suomen koulujen laulunopetus vuosina 1843-1881). Acta musicologica fennica, 7, Diss. Helsinki.
9. Isosaari, J. (1961). Teaching of educational sciences and didactics in the Jyväskylä teacher training college in 1865-1901 (Jyväskylän seminaarin kasvatustieteiden ja opetusopin opetus vuosina 1865-1901). Jyväskylän kasvatustieteiden korkeakoulun julkaisuja, 25.
10. Lahdes, E. (1966). Development lines of didactics (Didaktiikan kehityslinjoja). In A. Valtasaari, A. Henttonen, L. Järvi, & V. Nurmi (Eds.), Elementary school 1866-1966 (Kansakoulu 1866-1966) (pp. 151-172). Helsinki: Otava.
11. [Aleatori – Aksel Törnudd](#)
12. Törnudd, A. (1913a). Theory of teaching singing in elementary schools (Kansakoulun lauluoppi). Porvoo: WSOY.
13. [Вилхо Сиуконен — Википедия, свободная энциклопедия](#)
14. Siukonen, V. (1929b). Didactics of singing (Laulun opetusoppi). Helsinki: Otava.
15. Siukonen, V. (1929a). Song book: Songs for the home and the school (Laulukirja: Koulun ja kodin lauluja). Helsinki: Otava.

16. Heidi Westerlund, Marja-Leena Juntunen. Music Teacher Preparation in Finland: Facing. The preparation of music teachers: A global perspective
17. Xudaybergenova Malika Oybekovna. Xalqaro tajribalar asosida musiqa darslari sifatini yaxshilash: finlyandiya va estoniya ta'lim tizimlari tahlili. «Towards a new economy, pedagogy and technology» 2025/9/5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17039718>
18. Malika Xudaybergenova. O'zbekiston ta'lim tizimida musiqa o'qitishning shakllanish bosqichlari va tavsifi, News of the NUUz, 2024/10/15.
19. Qizi, Abdumajidova N. F. (2022). Alisher Navoiy va musiqa. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Conference DSMI), 252-555.
20. Ro'zimurodov, I. (2024). Xalq cholg'ulari va ularda ijro etish masalalari xususida. Nordic_Press, 2(0002).
21. Rozimurodov, I. (2024). Musical performance skills of a future music teacher as a pedagogical problem. Science and innovation, 3(B2), 417-427.